

BOLALARGA INGLIZ TILINI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

Xusenjonova Mohinur Faridunovna

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti

Ingliz tili II fakulteti MBT yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish, o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv usul bo'lishi bilan ajralib turadi. O'yinlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'rganish jarayonida qiziqishni saqlash, tillarni amaliy ravishda qo'llab quvvatlash va o'quvchilarning talablariga mos ma'lumotlarni o'rgatishga yordam beradi

Kalit so'zlar: Ingliz tili, o'yinlar, motivatsiya, qiziqish, dars, o'rganish.

Angliyalik olim Djon Lokkning aytishicha: "Dunyoga kelgan yangi chaqaloqning ruhini «top-toza paxtaga» o'xshatadi. Bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo kattalar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday inson bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, boshqalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir".^[1]

Bolalar ayniqsa, kichik yoshdagи bolalar qiziqqon bo'lishadi, shuning uchun har xil o'yinlar, multfilmlar bilan o'tiladigan darslar ularning nafaqat e'tiborini jalb etadi, balki yangi narsalarni o'rganishga ruhlantiradi. Darsni boshlab, salomlashgandan so'ng birdan uy vazifalarni tekshirish yoki yangi mavzuni tushuntirmasdan, avval o'quvchilarning kayfiyatini ko'tarish uchun har xil jismoniy mashqlar bajartirish maqsadga muvofiqli. Masalan, 5-10 marta qo'llarini ko'tarib, keng yozish ularni tetiklantiradi. Bundan tashqari, darsda o'tilgan yangi so'zlarni har xil o'yinlar yordami o'quvchilar eslab qolishganini tekshirish mumkin. Dars jarayonini bir necha qismlarga bo'lib o'rgatish mumkin:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Motivatsiya oshirish: O'yinlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar o'yinlar orqali o'rganishda ishtirok etishdan qiziqish duygusini his qiladilar. O'yinlar yordamida qiziqish va xursandlik oshirilishi, o'quvchilarni o'rganish jarayonida qat'iy nazar tashlash va kelajakda o'rganishni davom ettirishga yordam beradi.^[2;1]

Amaliy o'rganish: O'yinlar o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar yordamida tillarni o'rganish imkonini beradi. O'yinlar orqali gaplashish, tinglash, yozish va o'qishni amaliy ravishda o'rganish mumkin. Bu o'quv usuli o'quvchilarning tillarni amaliy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchi uchun tilni ishlashni osonlashtiradi.^[2;2]

O'quvchilar orasidagi hamkorlik: O'yinlar guruhda ishlashni rag'batlantiradi va o'quvchilar orasidagi hamkorlikni rivojlantiradi. O'yinlar o'quvchilarning bir-biriga yordam berishini, janglashishlarini, ma'lumot almashishlarini va o'zlarini til bilan ifoda qilishlarini oshiradi. Bu o'quvchilarning kompaniyaviylikni va jadal rivojlanishini rag'batlantiradi.^[2;3]

Qo'shimcha materiallar: O'yinlar o'quv materiallarini qo'shimcha maqlolalar, gaplar, audio va video qo'llanmalardan foydalanish orqali o'rgatish imkonini beradi. O'yinlar orqali o'quvchilar o'zlarini real hayotga ta'minlash uchun kerakli so'zlar va ifodalarni o'rganishadi. Bu materiallar o'quvchilarni motivatsiyali qilib, tillarni rivojlantirish va o'rganishni qiziqarli va samarador qilishga yordam beradi.^[2;4] Quyidagi har xil o'yinlar bolalarning til o'rganish jarayonini osonlashtirishi mumkin:

- **Ko'zgu o'yini***-tanlashdan maqsad bolalarni kuzatuvchanligini, diqqatini rivaoyalantirish.
- **Xatosini top***-bu o'yin bolalarning mavzu tushunganlarini tekshirish uchun qulaydir.
- **Ovozli ertak** jarayonida bolalar o'qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko'rib chiqishadi va shu bilan birga so'zlarni talaffuz qilishadi.
- **Multfilmlar ingliz tilida**-ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchilardan biri. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilishdan

zavqlanadilar.

- **Mavzuga oid muhit*** – bu bolalarga mavzuni tushunish va dars jarayonini yanada qiziqarli o'tishiga yordam beradi.
- **Qo'shiq va she'rlar** – bolalar eshitish (listening) mahoratini rivojlantiradilar va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rghanadilar.^[1;2]

Xulosa qilib, bolalarning til o'rghanishini qiziqarli va esda qolarli qilish uchun o'yinlardan foydalanish darsni nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchini ham bu jarayondan zavqlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sagdullayeva Sh. Maktabgacha ta'lif jurnali: "O'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish." Maqola
2. Yoqubjonova D. U. "INGLIZ TILINI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH METODIKASI" Международный научный журнал «Научный Фокус».
3. Zubaydova. N.N. Vocabulary task//. "Kasbiy fanlar metodikasi", 2016.
4. Zubaydova. N.N. The teaching of English for specific purposes//. "Scientific researchers for development future International conference Proceedings", 2019.

Ko'zgu o'yini* - bu o'yinda o'quvchilar varaqda teskari yozilgan so'zlarni to'g'irlab yozadilar. Masalan: "Elppa" shu so'zni to'g'irlab yozsak, "Apple" so'zi bo'ladi.

Xatosini top* - bunda bolalarga ba'zi so'zi yoki gaplar xato berilgan bo'ladi, ular xatoni topib, to'g'irlab yozadilar.

Mavzuga oid muhit* - bu darsni qiziqarli qilish, shu muhit orqali mavzuni bolalarning xotirasida muhirlab qo'yish uchun qulaydir. Masalan: mavzu "Travelling" bo'lsa, shunga mos ravishda chiqarilgan materiallar va bezaklar bola hayolida haqiqiy sayohatni jonlantiradi.